



E-ISSN 2181-1466  
9 772181146004



ISSN 2181-6875  
9 772181687004

 @buxdu\_uz

 @buxdu1

 @buxdu1


 www.buxdu.uz

**3/2024**

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



## **BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**



**3/2024**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2024, № 3, mart**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rareva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'yumurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Qybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Abdazova A.R.</b>	The features of the use of english environmental terms in the media	<b>3</b>
<b>Batirkhanova M.O.</b>	Somatik frazeologik birliklar tahlili va ularning o‘rganilish tarixi	<b>9</b>
<b>Sobirova D.R.</b>	Reklama matnlarining gender xususiyatlari (tibbiyotga oid reklamalar misolida)	<b>15</b>
<b>Sadullayeva G.I.</b>	Enhancing listening comprehension: strategies, challenges and a comprehensive methodology for language learners	<b>17</b>
<b>Asadov T.H., Bakirova N.H.</b>	Ayrim etnofrazemalarning lingvokulturologik tadqiqi (o‘zbek, rus, turk tillari misolida)	<b>26</b>
<b>Eshquvvatova G.N., Urinbayeva D.B.</b>	Stylistic features of proverbs in internet texts	<b>31</b>
<b>Hojiyeva M.G‘.</b>	Integrating language and content: strategies and challenges in content-based language instruction	<b>36</b>
<b>Khabibova M.N.</b>	Biografik asarlardagi epistolyar matnlarning o‘rni va ularning pragmatik xususiyatlari	<b>41</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Building a comprehensive bilingual synchronous corpus: principles and practices	<b>45</b>
<b>Narzullayeva D.B.</b>	Qur’oni Karim leksik konfiguratsiyalari: Ka’ba toponimmi yoxud teonim?	<b>50</b>
<b>Sadikov E.T.</b>	Iltifot va inkor mazmunidagi nutq aktlarining tasviriy-ifodaviy atributlari	<b>55</b>
<b>Pardayev S.Sh.</b>	Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot tizimidagi madaniy o‘ziga xoslik	<b>60</b>
<b>Mahmudova D.M.</b>	Significance and development of linguistic corpora in Uzbekistan	<b>66</b>
<b>Safoyeva S.N.</b>	Pragmatic marker: “so” and its role in modern oral discourse	<b>70</b>
<b>Turg'unboyeva D.A.</b>	Comparative pragmatics: politeness strategies in uzbek and english languages	<b>75</b>
<b>Xolova M.B.</b>	Tushuncha madaniy kodning shakllangan birligi sifatida	<b>81</b>
<b>Xusenova M.O‘.</b>	Termin va terminologiya xususida	<b>85</b>
<b>Ziyayeva D.A.</b>	Paradigmatic analysis of speech verbs	<b>89</b>
<b>Zokirova N.S.</b>	The concept of “linguistic picture of the world” in translation	<b>94</b>
<b>Давлатова М.Х.</b>	Встречение английских глаголов-предикатов в функционально-семантическом поле	<b>98</b>
<b>Махмудова Ю.А.</b>	Лингвокультурные особенности в контексте социолингвистического анализа произведения «Шайтанат»	<b>104</b>
<b>Gudzina V.A., Rustamova N.Sh.</b>	The phraseological specificity of V.Shukshin’s idiosyncrasy in fiction: an analysis of interconnections and functional features	<b>109</b>
<b>Subxonqulov U.T., Adizova F.M.</b>	So‘zlarni lingvistik tahlil qilish jarayoni uchun ayrim algoritmlarining qiyosiy tahlili	<b>114</b>
<b>Heydarova N.A.</b>	"Past", "present" and "future" as temporal adjectives	<b>119</b>
<b>Norova M.F.</b>	Phraseological dialectisms in english literary works	<b>123</b>
<b>Zeynalova K.</b>	The use of some national-cultural realies in the english language, their etymology and ways of their borrowings	<b>128</b>
<b>Karimova R.</b>	Pragmatic and conceptual aspects of idioms in the discourse of the british and american press	<b>134</b>
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Fe’lli birikmalarning nutqiy voqelanishi	<b>138</b>
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Hayitov Sh.A., Qudratova K.H.</b>	So‘z va soz sehri	<b>142</b>

## REKLAMA MATNLARINING GENDER XUSUSIYATLARI (tibbiyotga oid reklamalar misolida)

*Sobirova Dilnoza Rasulovna,*

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasи doktoranti

d.r.sobirova@buxdu.uz

**Annotatsiya.** Pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan kommunikativ intensiya(maqsad)ga adresat omili, shu bilan birga, maqsadli auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda erishiladi. Adresat matnni idrok etadi va uni o'zining dunyoqarashi bilan bog'laydi. Tibbiyotga oid mahsulotlarni reklama qilishda auditorianing ijtimoiy-demografik hamda psixografik xususiyatlari inobatga olinishi g'oyat muhim sanaladi. Ijtimoiy-demografik xususiyatlar deganda adresatning jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, kasbiy faoliyati kabilalar nazarda tutildi. Psixografik xususiyatlarda esa adresatlarning yashash tarzi, kundalik hayoti birlamchi ahamiyat kasb etadi. Tibbiy reklama matnlarini yaratishda har ikkala tur xususiyatlaridan foydalilaniladi. Ushbu maqola reklama matnlarining gender xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda adresatlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini sirasiga kiruvchi gender xoslanishlarning tibbiyotga oid reklamalarda voqelanishi tahviliga tortilgan. Bunda asosan televideniye orqali namoyish etilayotgan tibbiy reklama matnlarida gender xususiyatlarning namoyon bo'lishi o'rGANilib, xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** reklama matni, tibbiy reklama, gender, ayol, erkak, neytral tibbiy reklama.

## ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ (в примере медицинской рекламы)

**Аннотация.** Один из важнейших аспектов прагматики – коммуникативная интенция (цель) – достигается за счет учета фактора адресата и одновременно особенностей целевой аудитории. Адресат воспринимает текст и связывает его со своим мировоззрением. При рекламе медицинских товаров крайне важно учитывать социально-демографические и психографические особенности аудитории. Социально-демографические характеристики подразумевают пол, возраст, уровень образования, профессиональную деятельность адресата. С точки зрения психографических характеристик первостепенное значение имеет образ жизни и повседневная жизнь адресатов. Оба типа признаков используются при создании медицинских рекламных текстов. Выявлению гендерных характеристик рекламных текстов посвящена данная статья, в которой анализируется возникновение гендерных характеристик в медицинской рекламе, которые являются частью социально-демографических характеристик адресатов. При этом было изучено и сделано заключение о проявлении гендерных характеристик в текстах медицинской рекламы, показываемых на телевидении.

**Ключевые слова:** рекламный текст, медицинская реклама, пол, женский, мужской, нейтральная медицинская реклама.


## GENDER CHARACTERISTICS OF ADVERTISING TEXTS (in the case of medical advertisements)

**Abstract.** One of the most important aspects of pragmatics, the communicative intention (goal) is achieved by taking into account the addressee factor and, at the same time, the characteristics of the target audience. The addressee perceives the text and connects it with his worldview. When advertising medical products, it is extremely important to take into account the socio-demographic and psychographic characteristics of the audience. Socio-demographic characteristics mean gender, age, level of education, professional activity of the addressee. In terms of psychographic characteristics, the way of life and daily life of the addressees is of primary importance. Both types of features are used in the creation of medical advertising texts. This article is devoted to the elucidation of the gender characteristics of advertising texts, in which the occurrence of gender characteristics in medical advertisements, which are part of the socio-demographic characteristics of the addressees, is analyzed. In this, the manifestation of gender characteristics in the medical advertising texts shown on television was studied and concluded.

# LINGUISTICS

**Keywords:** advertising text, medical advertising, gender, female, male, neutral medical advertising.

**Kirish.** Manbalarda *gender* atamasi shaxs biologik jinsining ijtimoiy-madaniy namoyishi sifatida tavsiflanadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ta’rifiga ko‘ra: gender (jins) – bu ayollar, erkaklar, qizlar va o‘g‘il bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini bildiradi. Bunga ayol, erkak, qiz yoki o‘g‘il bo‘lish bilan bog‘liq me‘yorlar, xulq-atvor va rollar, shuningdek, bir-biri bilan munosabatlari kiradi [4]. Sodda qilib aytganda, gender ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi (erkak va ayol). Birinchidan, erkak va ayol fazilatlari haqidagi gender g‘oyalari lingvistik ongda, yana ham aniqrog‘i, tilda mustahkamlanadi. Ikkinchidan, erkaklar va ayollar nutqidagi farqlar gender farqlarining in‘ikosidir. Genderga reklama matnlarining til xususiyatlarini belgilaydigan muhim identifikatsiyalash omillaridan biri sifatida qaraladi. Gender xususiyati birlamchi bo‘lgan reklamatarda tibbiy vositalar ma’lum bir jins vakillari uchungina mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday reklamatarda dori vositalari faqat «ayollarga mo‘ljallangan», yoki aksincha, faqat «erkaklar uchun» qolipi ostida reklama qilinadi. Tadqiqot davomida televide niye orqali namoyish etilayotgan 200 ta tibbiy reklama roliklari (matnlari) bilan tanishildi. Kuzatilgan tibbiy reklamatarning 12 tasi, yana ham aniqrog‘i, 6 %i aynan erkak adresatlarga mo‘ljallangani ma’lum bo‘ldi. Erkaklarga mo‘ljallangan tibbiy reklamatarni quyidagicha guruhlash mumkin bo‘ladi (1-rasmga qarang):



**1-rasm. Erkaklarga mo‘ljallangan tibbiy reklamalar tasnifi**

a) erkaklarga mo‘ljallangan dori vositalari reklamasi:

*Prostata bezi adenomasida bovl qilish muammosini bartaraf etishda Prostamol uno yordam beradi.*

*Prostamol Uno – erkaklar uchun dori vositasi. («Vitaprost» dori vositasi reklama matnidan)*

b) erkaklarga mo‘ljallangan gigiyenik vositalar reklamasi:

*Har gal qo‘llarimiz bilan sochlaringizga tekkanimizda biz ularga kir, yog‘ va changni surtamiz. Clear mentol bilan sochlaringizni tozalang! 48 soatlik musaffolik va toza qazg‘oqsiz sochlarga ega bo‘ling! Clear hech narsani yashirma!* Clear. Erkaklar uchun (*«Clear mentol» shampuni reklama matnidan*).

d) erkaklarga mo‘ljallangan tibbiyot muassasalari reklamasi:

*– Sog‘lig‘imda o‘zgarishlar sezsa boshladim. Kechalari tez-tez turadigan bo‘ldim. O‘g‘lim Urologik kompleks klinikasiga olib bordi. Menda prostata bezi adenomasi borligi aniqlandi. Lazer yordamida prostata bezi adenomasi olib tashlandi.*

*Urologik kompleks har bir bemor uchun qayg‘uramiz! («Urologik kompleks» klinikasi reklama matnidan)*

Kuzatilgan tibbiy reklamatarning 14 tasi, yana ham aniqrog‘i, 7 foizi aynan ayol adresatlarga mo‘ljallangani ma’lum bo‘ldi. Y.Serdobinseva ham o‘z tadqiqotida ayollarga mo‘ljallangan reklamatlar miqdor jihatdan erkaklarga mo‘ljallangan reklamatardan ko‘p ekanligini qayd etadi. Ommaviy axborot vositalarida e‘lonlarni qabul qiluvchilar orasida ayollarning maqsadli auditoriyasi erkaklarnikiga nisbatan miqdoriy jihatdan ustunlik qiladi [3, 51].

Ayollarga mo‘ljallangan tibbiy reklamatarni quyidagicha guruhlash mumkin bo‘ladi (2-rasmga qarang):



## 2-rasm. Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalar.

a) ayollarga mo'ljallangan dori vositalari reklamasi:

- *Menda zamburug 'li kasallik mayjud. Nima maslahat berasan?*
- *Futsis zamburug ' kasalligiga qarshi preparat.*

*Futsis zamburug 'siz qulaylikni his qiling!* («Futsis» dori vositasi reklama matnidan).

b) ayollarga mo'ljallangan gigienik vositalar reklamasi:

- *Biz ayollar bu kunnalarda hech nimani his etishni istamaymiz!*
- *To 'xta, nima deding?*

*Biz ayollar gigienik vositasini bu kunnalarda his etishni istamaymiz!*

*Yangi Always Platinum bilan buning imkonli bor* («Always» gigienik vositasi reklama matnidan).

d) ayollarga mo'ljallangan kosmetik vositalar reklamasi:

*Vernisaj kreml terini yaxshi oziqlantiradi. Men vernisajni tanlayman!* («Vernisaj» kreml reklama matnidan).

Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda *ayollar* (qizlar) uchun vosita, ayollarda uchraydigan kasalliklarga qarshi kabi birliklar faol qo'llanadi:

*Shunday muammolar borki, ular haqida gapirilmaydi. Biroq ular aslida mayjud. Eng muhimi bu muammolarni yechish yo'lini topishdi. Futsis ayollarda uchraydigan zamburug ' kasalligining davosi* («Futsis» dori vositasi reklama matnidan).

Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda *erkaklar uchun*, erkaklarga xos kabi birliklarga urg'u beriladi: ... *Prostamol Uno erkaklar uchun* dori vositasi. («Prostamol Uno» dori vositasi reklama matnidan).

Amerikalik tadqiqotchilar Uanda Leppard, Shirley Matile Ogletree, Emili Uallenlar o'z tadqiqotlarida erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda erkak adresantlar kuchli, jiddiy qiyofada, ayollar esa ko'proq yoqimli qiyofada ko'rinish berishini qayd etadilar [2, 829].

Reklama beruvchilar ayollar auditoriyasining psixologik xususiyatlarini hisobga oladi, bu matnlar hissiylik, hissiyot ma'nosiga ega so'zlar bilan to'yungan: jozibali, muloyim tuyg'u, sezgir, hashamatli, yumshoqlik, sevikli, baxt, sezuvchanlik va boshqalar[3, 51]. Qayd etish lozimki, tibbiy reklamalar davrga hamohang yaratiladi. Ilgari reklamalarda ayol obrazi uy bekasi, g'amxo'r ona qiyofasida gavdalangan bo'lsa, bugun u go'zallikka intiluvchi, jamiyatning eng oldi vakilasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayollarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda, ayniqsa, kosmetik vositalar reklamasida *betakror, go'zal, mayin, nafis, chiroyli* kabi sifatlar faol qo'llanadi:

– *Ishonmaysiz! Ajoyib silliqlik. Betakror, nafis teri va hech qanday yopishqoqliksiz. Bularning barchasi qalin pudra niveya dezodaranti tufayli. Shuning uchun ham qizlar pudra effektiga ega dezodarantlarni nihoyatda yaxshi ko'rishadi. Niveadan.* («Nivea care» reklama matnidan).

Erkaklarga mo'ljallangan tibbiy reklamalarda esa *kuch, g'alaba* kabi birliklar birlamchi o'rinda qo'llanadi:

*Qizil gigantga xos kuchga ega bo'l. Olivia Phantom antiperspirantlari.* («Olivia Phantom» antiperspiranti reklama matnidan).

Kuzatuvlarimiz davomida bir mahsulotning erkaklar uchun alohida, shuningdek, ayollar uchun alohida shaklda ishlab chiqarilgani, tabiiyki, bu holat reklamalarda aks etganining guvohi bo'ldik. E'tiborli jihatni shundaki, bir mahsulotning erkaklar va ayollar uchun yaratilgan reklamalarida gender xususiyatlar yaqqol namoyon bo'lgan.

## LINGUISTICS

*Yangi afsonaviy Clear shampuni **champion kuchi** va g‘alaba hidi bilan to‘la. Qazg‘oqni yo‘qotadi va uzoq vaqtga soflik hissini bag‘ishlaydi. Afsonaviy Clear shampuni bilan qazg‘oq g‘amini unuting. Krishtanu Ronaldu bilan yaratilgan. Erkaklar uchun.* («Clear» shampuni reklama matnidan).

Yuqorida keltirilgan reklama matnida ifodalangan **champion, kuch, g‘alaba** kabi leksik birliklar erkak jinsi vakillari muloqotida faol qo‘llanadi. Qolaversa, reklama roligida erkak jinsining tipik vakili sifatida futbol olamining qiroli – Krishtaniu Ronaldu ishtirot etgan. Shuningdek, **erkaklar uchun** tugallanmasi reklamaning erkak jinsiga mansub adresatlarga qaratilganiga urg‘u bergen.



**3-rasm. "Clear" gigiyenik vositasining erkaklar va ayollarga mo‘ljallangan ko‘rinishlari**


– Har qanday vaziyatda ham faqat **eng chiroyli sochlarmi?**

*Anna Sedokova:* – Ha! Chunki qazg‘oqdan himoya uchun mening tanlovim yangi Clear Sakura B3 vitamini bilan bosh terisini oziqlantiradi. Qazg‘oq yo‘q, sochlardan uch karra **mayin. Clear Sakura!** («Clear» shampuni reklama matnidan).

Ushbu reklamada ayol jinsining tipik vakili sifatida ukrainalik pop qo‘sishchi, aktrisa, televizion va radio boshlovchisi – *Anna Sedokova* ishtirot etgan. **Eng chiroyli sochlardan mayin** kabi birliklar ayol adresatlar e’tiborini jalg qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mahsulot nomlanishida ham gender xoslik ko‘zga tashlanadi. Sakura – Yaponiyada o’suvchi, go‘zal gullari bilan barchani lol qoldira oladigan daraxt turi. U tabiatning go‘zalligi, **hayotning soddaligi, beg‘uborligi va o‘tkinchiligini ramziy ma’noda anglatadi**. Ma’lumotlarga qaraganda, qadimda yapon samuraylari go‘zallik timsoli bo‘lgan sakuraga sajda qilishgan ekan [5].

S.A. Korochkova reklama tasnifida erkak, ayol va jinsga nisbatan neytral reklama turlarini ajratib ko‘rsatadi [1]. Kuzatishlarimiz davomida biz S.A. Korochkova tasnifiga qo‘sishicha ravishda erkaklarga xos tibbiy vositaning ayollarga xos tibbiy vosita bilan bir vaqtning o‘zida bitta rolida reklama qilinganiga guvoh bo‘ldik. Bu o‘rganilgan reklamalarning 2 % ini tashkil etadi.

Doktor D (Dilmurod Ergashev): – *Homiladorlikka tayyorlashda (ayollar uchun) Mammolin va (erkaklar uchun) Sperolin mahsulotlarini tavsiya qilaman* («Mammolin» va «Sperolin» dori vositalari reklama matnidan).



**4-rasm. Televideniye orqali namoyish etilgan tibbiy reklamalarning gender xususiyatlariga ko‘ra ulushi.**

## LINGUISTICS

---

**Xulosa.** Gender reklama matnlarining til xususiyatlarini belgilaydigan muhim identifikatsiyalash omili hisoblanadi. Kuzatuvlarimiz o‘rganilgan 200 ta tibbiy reklamalarning 7 % ini ayollarga mo‘ljallangan tibbiy reklamalar, 6 % ini erkaklarga mo‘ljallangan tibbiy reklamalar, 2 % ini erkak va ayollarga mo‘ljallangan tibbiy vositalar bir reklama roligida berilgan tibbiy reklamalar, 85 % ini esa neytral tibbiy reklamalar tashkil etishini ko‘rsatdi (4-rasm). Xullas, reklama qilinayotgan mahsulot(xizmat)ga qiziquvchilar auditoriyasini kengaytirishda adresatlarning gender xususiyatlarini inobatga olgan holda reklama matnini tayyorlash reklamaning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

### *ADABIYOTLAR:*

1. Корочкова С. А. Социолингвистическая характеристика рекламных текстов в гендерном аспекте: На материале русскоязычных журналов. автореф. канд. филол. наук. 2004.
2. Leppard W., Ogletree Sh. M., Wallen E. Gender Stereotyping in Medical Advertising: Much Ado About Something? // Sex Roles, Volume. 29, Nos. 11/12, 1993. – P. 829.
3. Сердобинцева Е. Структура и язык рекламных текстов. – Москва: Наука, 2010. – C. 51.
4. [https://www.who.int/health-topics/gender#tab=tab\\_1](https://www.who.int/health-topics/gender#tab=tab_1)
5. <https://www.jardineriaon.com/uz/flor-de-sakura.html#Que significado tiene la flor de cerezo o sakura>
6. Deppermann A. Social Actions. The Cambridge Handbook Of Sociopragmatics / edited by Michael Haugh, Dániel Z. Kádár, Marina Terkourafi. – New York: Cambridge University Press, 2021.
7. Okhunjonovna S. H., Bakoevna R. M., Kadirovna A. Z. Travelogues in The Literature of Bukhara at The End of The 19th and The Beginning of The 20th Century //resmilitaris. – 2023. – T. 13. – №. 1. – C. 258-264.
8. Yokubova, S. (2023). [BELGI-HARAKAT] MA’NOLI FE’LLI BIRIKMALARNING NUTQIY IMKONIYATLARI XUSUSIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 35(35). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9993](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9993)
9. Yokubova, S. (2021). Относительно формального грамматического описания объектных соединений. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
10. Yokubova, S. Y. (2023). O’ZBEKONA GAP QURILISHIDA FE’LNING TUTGAN O’RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 421–426. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4003>
11. Shirinova, M. S. (2020). CINEMATOGRAPHIC LANGUAGE CONCEPT AND ITS PECULIARITIES. Scientific reports of Bukhara State University, 3(4), 182-185.
12. Shirinova, M. S. (2020). ORTHOLOGICAL PECULIARITIES OF UZBEK MOVIES’ NAMES. Scientific reports of Bukhara State University, 4(1), 148-152.
13. Shokirovna, S. M. The Issue of Literary Norms in the Language of Cinema. International Journal on Integrated Education, 3(3), 35-40